INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

ANTROPONIMLARNING FUNKSIONAL –SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ruziyeva Sabina Baxri qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.15687254

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastik birliklardan bo‘lgan antroponimlar tahlil qilinadi va bular orqali yozuvchining o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan informatsiyasi, estetik jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, semantik-funksional xususiyat, allyuziya, estetik vazifa

Аннотация: В данной статье анализируются антропонимы из ономастических единиц и раскрываются информационные и эстетические аспекты, которые писатель хочет донести до читателя через них.

Ключевые слова: антропоним, семантико-функциональный признак, аллюзия, эстетическая функция

Abstract: This article analyzes anthroponyms from onomastic units and reveals the informational and aesthetic aspects that the writer wants to convey to the reader through them.

Key words: anthroponym, semantic-functional feature, allusion, aesthetic

O‘zbek tili onomastikasining eng yirik sohalaridan biri antroponimikadir. Antroponimika nomshunoslikning kishi atoqli otlarini o‘rganuvchi bir bo‘limi hisoblanadi. Barcha tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tili lug‘at qatlamida ham atoqli otlar muhim ahamiyatga ega. Til lug‘at tarkibining ajralmas qismi bo‘lgan antroponimlar o‘zining semantik va funksional xususiyatlariga ega. Shuningdek, antroponimlar o‘zida tarixiy, lingvistik, entografik, geografik ma’lumotlarni ham saqlaydi. Masalan, Boltavoy, Teshavoy ismlarini, asosan, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan insonlar farzandlariga qo‘yishgan, bu esa shaxslarning kelib chiqishi, ajdodlarining mashg‘ulotlari haqida xabar beradi; Qo‘ziboy, Qo‘chqor, To‘xli kabi nomlar esa chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi oilada tug‘ilgan farzandlarga nisbatan shunday nom berilgan va bu nomlar orqali ularning qishloq hududida yashashi, ularning ota-bobolari kasb-korlari haqida ham ma’lumot beradi. Garchi bu kabi so‘zlar juda kam bo‘lsa-da, hozirgi kunda yoshi katta insonlarda uchrab turadi.

Badiiy matnlarda qo‘llanadigan antroponimlar faqatgina kitobxonga biror nom to‘g‘risida ma’lumot berib qolmay, balki semantik- funksional vazifa bajarib, yozuvchi o‘tkazadigan estetik ma’nolarini ham ifodalaydi. Jumladan, badiiy asarlarda foydalaniladigan antroponimlar obrazning ismi haqida, shuningdek, bu ism orqali uning shaxsiyati haqida ham ma’lumot beradi. Albatta, buni qay yo‘lda etish har bir yozuvchining uslubi, mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda allyuziya, “badiiy adabiyotda va notiqlik san’atida tarixiy voqea yoki mashhur asarlarga ishora qilishdan iborat stilistik figuralardan biri”[4;27], tushunchasi mavjud. Bunda tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma’lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish natijasida intertekstuallik yuzaga keladi. Misol namunasi sifatida Erkin Malikning “Nima qilib qo‘yding, Sherzod” hikoyasi tahlilida ko‘rishimiz mumkin:

Ulug‘bekni Solijon aka yotgan xonaga olib kirishdi.Ular shu yerda tanishishdi.

- Isming Ulug‘bek ekan, Ulug‘bek kimligini bilasanmi?- deb so‘radi Solijon aka.

- Bilaman, u kishi podsho bo‘lganlar, keyin yulduzlarni ko‘p o‘rganganlar. Men ham yulduzlarni o‘rganishni yaxshi ko‘raman.

- Qiziq-ku,-dedi Solijon aka,- yulduzlarni qandoq qilib o‘rganib bo‘ladi?

-Qutb yulduzini bilasizmi?

-Eshitganman,lekin u haqida hech narsa bilmayman.

-Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab yo‘llarini aniqlab oladilar,- dedi Ulug‘bek.

-Mabodo, sen Cho‘lpon yulduzi haqida gapirmayapsanmi?- so‘radi Solijon aka.

-Cho‘lpon yulduzi boshqa.Qutb yulduzi boshqa.Cho‘lpon yulduzi tong mahali ko‘rinadi. Qutb yulduzi kechasi bilan bir joyda turadi. Osmondagi hamma yulduzlar uning atrofida aylanadi. Qutb yulduziga qarab boshqa yulduzlarning harakati o‘rganiladi.

-Qoyil,-dedi Solijon aka hayratlanib,-ismingga munosib bola ekansan.

Asar qahramonlari dialogi orqali nafaqat Ulug‘bek obrazining shaxsiy xususiyatlari, bilimdonligi, balki buyuk mutafakkir Mirzo Ulug‘bekka ishora qilganligi, bu bilan bog‘liq tarixiy voqealar, ya’ni uning ilmi nujumni o‘rganganligini eslatib o‘tganining guvohi bo‘lamiz.

Shuningdek, bu kabi holatlarni she’riy matnlarda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasida ham bir qancha namunalarni ko‘rishimiz mumkin:

...Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor
Ko‘ragoniy jadvallarida.
Qotil qo‘li qilich soldi mast,
Quyosh bo‘lib uchdi tilla bosh.
Do‘stlar ko‘kda yulduzlar emas,
U, Ulug‘bek ko‘zidagi yosh…

Yuqoridagi misralardan ham podshoh, ham olim Mirzo Ulug‘bekning noqobil o‘g‘il Abdulatif tomonidan boshiga tushgan mudhish voqealar o‘quvchi ko‘z oldiga keladi. Bu kabi misollarni qasidaga ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Bundan tashqari obraz tasviri borasida ham uning ismi muhim rol o‘ynaydi. Biror adabiy qahramon tashqi ko‘rinishi, xislatlarini yaqqol namoyon qilishda ham yordam beradi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi bosh qahramon Anvar va Ra’no ismlari shunchaki tasodifan tanlangan deb ayta olmaymiz. Anvar obrazi ismi jismiga monand - nurli, tolei porloq [2;31] shaxs ekanligi asar voqealari davomida ochib berilgan. Ra’noning go‘zalligi ta’rifi dastlab Lola ismli qizga nisbatan qiyoslanib (Lolaning ismi chiroyli bo‘lsa-da, o‘zi ismichalik go‘zal emasligi aytib o‘tilgan), so‘ngra uning ismi orqali uning chiroyini ko‘rsatib beradi:

... Ammo Ra’noning ismi- jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san’at bo‘lg‘anda edi, so‘z bilan biljirab o‘lturmas, shu o‘rinda sizga Ra’noning rasmini tortib ko‘rsatar, qo‘yar, faqat menga Ra’no gulining suvigina ko‘proq kerak bo‘lar edi.

Bu jumlalar orqali Ra’no obrazi adabiy portreti gavdalanadi. Ra’noning go‘zalligiga so‘z, hatto qalam bo‘yog‘i ojiz ekanligi, uning siymosini faqat ra’no guli suvi bilan chizish mumkinligini anglab olamiz. Ra’no, haqiqatdan ham ismi husniga monand, ya’ni qizil guldek go‘zal, chiroyli, latofatli [2;348]qiz ekanligini anglab olish qiyin emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, antroponimlardan nafaqat shaxsni atashda, balki uning etnografiyasi, ota-bobolari to‘g‘risida ham ma’lumot saqlaydi, badiiy adabiyotlarda

nomlardan foydalanish bilan kitobxonga estetik ta’sir o‘tkazish, shuningdek, qahramonlarning tashqi ko‘rinish, shaxsiy fazilat va xususiyatlarini; illatlari hamda noqobilligini obrazli tarzda tasvirlab berish mumkin. Bu usullardan qay holda foydalanish va o‘quvchiga yetkazib berish yozuvchi mahorati va didiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Qodiriy. Mehrobdan chayon. –Toshkent.1994.
2. Begmatov E. A. O‘zbek ismlari ma’nosi 2-nashr. – Toshkent.
3. Oripov A. Saylanma.- Toshkent. 2018.
4. Xatamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha- o‘zbekcha izohli lug‘ati.- Toshkent. 1979.27-bet.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.- Toshkent.2008.
6. Винокур Г. О. О языке художественной литературе – М.; Высшая школа, 1991.
7. Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественная текста.- М .; Русский язык, 1989.
8. Xalova, M. (2022). POETIC INTERPRETATION OF WOMEN'S EXPERIENCE IN POETRY. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА.
9. Eshimova, S. K. (2024, November). Koreys va o ‘zbek tillarida metaforik ma’noning vujudga kelishi. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 372-375).
10. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
11. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.
12. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.
13. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.
14. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.
15. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.
16. Shirinboyevna M. D. NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 39-42.